



MA'NAVIYAT-MA'RIFATNI INSON HAYOTIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: U.X. Adambayev

“Urganch Ranch Texnologiya” universiteti katta o'qituvchisi

Baxtiyorova Yorqinoy Ixtiyor qizi

“Urganch Ranch Texnologiya” universiteti talabasi

[Telefon: +99 899 683 05 11](tel:+998996830511)

Annotatsiya. Ushbu maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini “uzliksiz ma'naviy tarbiya” konsepsiyasi orqali amalga oshirish hamda oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan holatlarni oldini olish va targ'ibot ishlarini o'tkazish to'g'risida bayon etilgan. Shuningdek xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirib borish, dunyoda bo'layotgan g'oyaviy bo'shliqlar, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erda turmush qurush, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarni oldini olishga qaratilgan vazifalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Ma'naviyat, ma'rifat, oila, mahalla, jinoyatchilik, din, ekstremizm, terrorizm, ommaviy madaniyat, mafkuraviy immunitet, sog'lom dunyo qarash, kitobxonlik ko'nikmasini shakillantirish.

Ma'naviyat -inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha¹. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida „ma'no“ so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning tashqi va ichki olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi, xatti-harakati va boshqalar kiradi. Ichki olami esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami ma'naviyatdir. Inson hayotini ma'naviyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Oziq-ovqat odamga jismoniy quvvat bersa, ma'naviyat unga ruhiy ozuqa va qudrat bag'ishlaydi.

Ma'naviyat ma'rifat va madaniyat bilan bog'liq. Ma'naviyat odamlarda tap-tayyor holda vujudga kelmaydi. Unga muttasil o'qish, o'rganish, tajriba orttirish orqaligina erishiladi. Ma'naviyat qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik ravnaq topadi. Ma'naviyatli odam yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, umrini mazmunli o'tkazish yo'lini izlab topadi, muomala qilish madaniyatini

A. Erkayev. Ma'naviyat va taraqqiyot. T.: “Ma'naviyat” nashriyoti, 2009-yil, 19-bet

egallaydi, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg'on va rost nima, or-nomus nima, halol va harom nima — bularning hammasini bir-biridan ajrata oladi, hayotda yomonlikka boshlovchi xatti-harakatlardan voz kechadi, yaxshilikka boshlovchi amallarni bajaradi.



Qisqasi, ma'naviyatda inson hayotining mazmuni aks etadi. Vatanni sevish, vatanparvarlik inson ma'naviyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'naviyat kamol topgan jamiyatlarda qobiliyat, iste'dod egalari shu jamiyatning, millatning yuzi, g'ururi, obro'-e'tibori hisoblanadi. Ma'naviyatli jamiyatda aql, sog'lom fikr, adolat va yaxshi xulq ustuvordir. Bunday jamiyatda xalqning ertangi kunga ishonchi kuchli bo'ladi, odamga nomunosib turli illatlar barham topadi.

Millatning asrlar davomida shakllangan ildizlari, uning tarixiy tajribalari va ijtimoiy madaniy rivojlanishsiz ma'naviyatni tasavvur qilish qiyin. Shu sababli O'zbekistonda ma'naviyatni yuksaltirish, xalqni ma'naviyatli qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Mustaqillik tufayli o'zbek xalqining ko'p asrlilik boy tarixiy, ilmiy, madaniy va diniy merosini o'rganish, undan xalqning umumiy va bebaho mulki sifatida foydalanishga keng yo'l ochildi.

Ma'naviyatimiz „Avesto“²va zardushtiylik ta'limotidan boshlab hozirgi kungacha shakllanib, boyib, umuminsoniy qadriyatlar bilan yonma-yon rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ma'naviyat va ma'rifatni ko'tarish, targ'ib qilish, boyitish, aholining keng doirasiga yoyish maqsadida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tashkil etilgan³.

Respublika ta'lim tizimida ma'naviyat sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilyapti. “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir” – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat. Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasida ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan⁴, –dedi Prezident Sh.M.Mirziyoyev. “Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik”⁵. Prezidentimizning mana shu aniq maqsadli, xalqimizning farovon hayoti yo'lida ezgu harakatlar bilan yo'g'rilgan gaplarini eslaganda, har bir davlat xizmatchisi o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi shartligi anglashiladi.

Birinci Prezidentimiz I.A.Karimov.”Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” asari. T.:”Ma'naviyat”nashriyoti,2013-yil,28-30-31-betlar.

Odamlar hayoti tubdan o'zgardi, farovonlik darajasi oshdi, shaharlar, qishloqlar qiyofasi o'zgacha fusun kasb etdi. Xalq va davlat orasida muloqot yo'lga qo'yildi. Davlat idoralari, davlat xizmatchilarining aholi oldida mas'uliyati ortdi. Bu ulug'vor jarayonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ham ulkan qadamlar tashlandi. Jamiyatda qarashlar o'zgardi: erkin fikr, erkin so'z, erkin axborot makoni yuzaga keldi. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, yangi ma'naviy makon qurishda “Yangi O'zbekiston orzusi”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratish” maqsadi barchamizga yangicha ruh bag'ishlamoqda⁶. Ammo ma'naviy-ma'rifiy ishlar muayyan bir



davrdamashg‘ul bo‘lib, keyin o‘z holiga tashlab qo‘yiladigan soha emas. Yurt taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish borasida ulkan maqsad va vazifalar belgilanar ekan, albatta, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarni yuksaltirish birinchi galdagi vazifaga aylanadi. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat”⁷.

Mustahkam poydevor ustida mustahkam imorat barpo bo‘ladi. Shunday ekan, ajdodlarimizdan bizga qoldirilgan boy ma‘naviy meros xalqimiz tafakkuri va ma‘naviyati ildizlarini oziqlantirib turadi, unga ruhiy madad va yaratuvchi kuch baxsh etadi. Prezidentimizning 2021-yil 26-martdagi “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorida⁸ mazkur yo‘nalishda oldimizda turgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Xususan, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish, oila, ta‘lim tashkilotlari va mahallalarda ma‘naviy tarbiya uzviylikini ta‘minlash ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan⁹. Shuningdek, targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish, el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas‘uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish ham yuqoridagi vazifalar sirasiga kiradi.

Axborot texnologiyalarining bemisil taraqqiyoti inson hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Mazkur qarorda aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2022. 5-bo‘lim.247-bet.

mafkuraviy immunitetini kuchaytirish borasidagi vazifalarga ham alohida e‘tibor qaratilgan.

Madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san‘atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma‘naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish bilan chetdan raxna solayotgan yot, buzg‘unchi g‘oyalar ta‘siridan saqlanamiz.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar jarayonida geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish hamisha dolzarb bo‘lib qoladi. Mazkur ulkan vazifalarni amalga oshirish uchun har bir masalaga vatanparvarlik bilan, vijdon amri ila yondashish, samarali qat‘iy ijroni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, intizomning o‘zi ham ma‘naviyatdir¹¹. Prezidentimiz qarori asosida Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi



huzurida Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasi¹², Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti¹³ tashkil etildi. Sohada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish maqsadida 2022-yildan Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti huzurida ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ish boshladi. Ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyasi¹⁵ tanlovlarini tashkil etishda hurmatga sazovor bo'lgan yozuvchi va shoirlarni keng jalb etish tizimi yo'lga qo'yildi.

Milliy gvardiya o'rtasida Temurbeklar maktablarida Sohibqiron Amir Temurning mardona ruhi, jasorati, sarkardalik mahorati, Vatanga bo'lgan buyuk sadoqati, yuksak ma'naviy fazilatlarini yoshlar ongi va qalbiga singdirishga qaratilgan turkum tadbirlarni o'tkazilib borilmoqda¹⁶. Markaz va uning hududiy bo'limlari tomonidan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, nodavlat telekanallarda 180 dan ziyod ko'rsatuv va intervyu efirga uzatildi. Markazda 15 ta shtat birligidan iborat Raqamli targ'ibot bo'limi tashkil etilib, "Oyina.uz" elektron portali faoliyati yo'lga qo'yildi. 2022-yilda jadid ma'rifatparvarlarining 5 ta kitobi va ularning audionusxalari tayyorlanib, "Oyina.uz" elektron portaliga joylashtirildi. Respublikaning barcha hududlarida an'anaviy tarzda "Ma'naviyat festivali" o'tkazilmoqda¹⁷. 2022-yil iyun oyidan boshlab hududlar kesimida "Ma'naviyat karvoni" – madaniy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish yo'lga qo'yildi¹⁸. Bugungi kungacha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Qashqadaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan mazkur tadbirlarda jami 1500 dan ziyod yetakchi olim, ma'rifat targ'ibotchisi, adabiyot, san'at sohasi vakillari jalb qilindi. Ular ishtirokida barcha mahallalarda madaniy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, badiiy kechalar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston va umumbashariy muammolar. T.: O'zbekiston, 2022. 6-bo'lim. 287-bet.

2021-yil 28–30-sentabr kunlari Sohibqiron Amir Temur tavalludining 685 yilligiga bag'ishlab "Amir Temur – dunyo olimlari va adiblari nigohida" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi¹⁹. Unda Fransiya, Germaniya, Rossiya, Turkiya, Misr, Eron, Pokiston, Ozarbayjon kabi dunyoning 14 davlatidan 17 xorijlik va 60 dan ziyod mahalliy olim qatnashdi.

Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi jasorati, yurt ozodligi yo'lidagi kurashlari tarixini keng tadqiq etish maqsadida "Jaloliddin Manguberdi izidan" ilmiy ekspeditsiyasi tashkil etildi²⁰. O'rganishlar asosida ZOOM platformasi orqali Turkiya, Pokiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'iziston tarixchi olimlari ishtirokida dastlabki ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Qilinayotgan ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlar samaradorligiga to'siq bo'layotgan qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Zero, ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyalari bilan sug'orilgan yangi ma'naviy makon yaratishni maqsad qilgan yangi O'zbekistonda hamma harakatlarimizning asosi faqat va faqat xalqimizning rozi qilishga



qaratilgan dedi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma‘naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”, degan edi. Mana shu gap hech qachon yodimizdan chiqmasligi, har bir bajarayotgan ishimizda dasturilamal bo‘lmog‘i shart. Shundagina biz ko‘zlagan maqsadlarimizga, albatta, yetamiz dedi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak so‘ngi yillarda Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ta‘minlash va himoya qilish masalasi eng ustuvor yo‘nalishga aylandi. Ma‘naviy va ma‘rifiy sohani rivojlantirish ishlari haliyam davom qilmoqda. Jamiyatda ma‘naviyat va ma‘rifatni yuksaltirish uchun avvalo biz oilaga murojat qilamiz. Chunki tarbiya asosan oiladan boshlanadi. Xalqimizning “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan iborasi bunga asos bo‘ladi. Biz asosan ota-onalarimizni ma‘naviy va ma‘rifiy jihatdan bilimlarini, dunyoqarashini, tafakkurini oshirsak, kelajak avlod “Yangi O‘zbekiston”ni butun dunyoga tanitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma'ruzalari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyas. Toshkent.: O'zbekiston, 2022. 5-bo'lim.247-bet.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston va umumbashariy muammolar. T.:O'zbekiston, 2022. 6-bo'lim.287-bet.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Mirziyoyev Adolatli ijtimoiy siyosat. T.:O'zbekiston, 2022. 4-bo'lim.237-bet.
- 4.Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.”Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” asari. T.:”Ma'naviyat”nashriyoti,2013-yil,28-30-31-betlar.